

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI AXBOROTNOMASI

Axborotnoma OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrdagi 223/4-son qarori bilan biologiya, qishloq xo‘jaligi, tarix, iqtisodiyot, filologiya va arxitektura fanlari bo‘yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan

**2024-12/4
Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi
2006 yildan boshlab chop qilinadi**

Xiva-2024

Bosh muharrir:*Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.***Bosh muharrir o‘rinbosari:***Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.***Tahrir hayati:**

Abdullayev Ikram Iskandarovich, b.f.d., prof.
Abdullayeva Muborak Maxmusovna, b.f.d., prof.
Abduhalimov Bahrom Abduraximovich, t.f.d., prof.
Agzamova Gulchexra Azizovna, t.f.d., prof.
Aimbetov Nagmet Kalliyevich, i.f.d., akad.
Ametov Yakub Idrisovich, b.f.d., prof.
Babadjanov Xushnut, f.f.n., prof.
Bobojonova Sayyora Xushnudovna, b.f.n., dos.
Bekchanov Davron Jumanazarovich, k.f.d.
Buriyev Xasan Chutbayevich, b.f.d., prof.
Gandjayeva Lola Atanazarovna, b.f.d., k.i.x.
Davletov Sanjar Rajabovich, tar.f.d.
Durdiyeva Gavhar Salayevna, arx.f.d.
Ibragimov Baxtiyor To‘laganovich, k.f.d., akad.
Izzatullayev Zuvayd, b.f.d., prof.
Ismailov Is‘haqjon Otabayevich, f.f.n., dos.
Jumaniyozov Zoxid Otaboyevich, f.f.n., dos.
Jumanov Murat Arepbayevich, b.f.d., prof.
Kadirova Shaxnoza Abduxalilovna, k.f.d., prof.
Qalandarov Nazimxon Nazirovich, b.f.f.d., k.i.x.
Karabayev Ikramjan Turayevich, q/x.f.d., prof.
Karimov Ulug‘bek Temirbayevich, DSc
Kurbanbayev Ilhom Jumanazarovich, b.f.d., prof.
Kurbanova Saida Bekchanovna, f.f.n., dos.
Qutlijev Uchqun Otaboyevich, f-m.f.d.
Lamers Jon, q/x.f.d., prof.
Maykl S. Enjel, b.f.d., prof.
Maxmudov Raufjon Baxodirovich, f.f.d., k.i.x.
Mirzayev Sirojiddin Zayniyevich, f-m.f.d., prof.
Matniyozova Hilola Xudoyberganovna, b.f.d., prof.

Mirzayeva Gulnara Saidarifovna, b.f.d.
Pazilov Abduvayeit, b.f.d., prof.
Razzaqova Surayyo Razzoqovna, k.f.f.d., dos.
Ramatov Bakmat Zaripovich, q/x.f.n., dos.
Raximov Raxim Atajanovich, t.f.d., prof.
Raximov Matnazar Shomurotovich, b.f.d., prof.
Raximova Go‘zal Yuldashovna, f.f.f.d., dos.
Ro‘zmetov Baxtiyar, i.f.d., prof.
Ro‘zmetov Dilshod Ro‘zimboyevich, g.f.n., k.i.x.
Sadullayev Azimboy, f-m.f.d., akad.
Salayev San‘atbek Komilovich, i.f.d., prof.
Saparbayeva Gulandam Masharipovna, f.f.f.d.
Saparov Kalandar Abdullayevich, b.f.d., prof.
Safarov Alisher Karimdjaniyevich, b.f.d., dos.
Sirojov Oybek Ochilovich, s.f.d., prof.
Sobitov O‘lmasboy Tojxmedovich, b.f.f.d., k.i.x.
Sotipov Goyipnazar, q/x.f.d., prof.
Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, b.f.d., akad.
Xollijev Askar Ergashevich, b.f.d., prof.
Xolmatov Baxtiyor Rustamovich, b.f.d.
Cho‘ponov Otanazar Otonovich, f.f.d., dos.
Shakarboyev Erkin Berdikulovich, b.f.d., prof.
Ermatova Jamila Ismailovna, f.f.n., dos.
Eshchanov Ruzumboy Abdullayevich, b.f.d., prof.
O‘razboyev G‘ayrat O‘razaliyevich, f-m.f.d.
O‘rozboyev Abdulla Durdiyevich, f.f.d.
Hajiyeva Maqsuda Sultonovna, fal.f.d.
Hasanov Shodlik Bekpo‘latovich, k.f.n., k.i.x.
Xudayberganova Durdona Sidiqovna, f.f.d.
Xudoyberganov Oybek Ikromovich, PhD, k.i.x.

Xorazm Ma‘mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№12/4 (121), Xorazm Ma‘mun akademiyasi, 2024 y. – 614 b. – Bosma nashrning elektron varianti - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Muassis: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi mintaqaviy bo‘limi – Xorazm Ma‘mun akademiyasi

Musaev B.N. Translation difficulties of phraseological units in english scientific-popular texts into russian	257
Musayev F. Til egasi bo'lmaganlarga arab yozuvini o'rgatishdagi murakkabliklar	260
Muxamedova M.A. Isohor Oqilov ijodida sahnaviy raqs	262
Muxammedova S.I. "Oshiqnoma" dostonlaridagi diniy konseptli ayrim hikmatli so'zlar tahlili	266
Nasillayeva M.M. Atoiy "Devon"ida metaforalarning qo'llanilishi	271
Nasrullayeva U. G'arb adabiyotshunosligida Qirol Artur siymosi	273
Nazarova A.R. Partav Nodiriy she'rlarida nur va zulmat timsollarining aks etishi	276
Ne'matova H.A. Safarnoma janriga oid asarlarni o'qitishda interfaol metodlardan foydalanish	278
Nizomova Z. Energetikaga oid inglizcha leksik birliklarning morfologik tahlili	281
Normatova A.D. Approaches to literary translation: methodologies and techniques	285
Nuraliyeva G. Terminologik tizimlarning shakllanishi va qaror topishi va harbiy terminlarning tilshunoslikka termin sifatida kirib kelishi	288
Nuritdinova R.N. Jinoyat leksikasini hosil qilishda muloqot shart-sharoitlarning o'rni	290
Obidova A. Onomastika tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishi sifatida	293
Olimova D.Z. Cognitive mechanisms of simultaneous interpreting	295
Omonova O.X. Annamari Schimmel – boburshunos olimi	298
Ortikova E. Notarial discourse as a research object of linguistics	301
Pulatova Kh.G`. Contrastive analysis of idiomatic expressions and phraseological units in english and uzbek languages	304
Qobilova N.S., Azimova M.Sh. Ingliz tilida baho konseptini ifodalovchi til birliklari kognitiv-pragmatik nuqtai nazar	307
Qobilova N.S., Hojiyeva M.T. Ingliz tilida modal fe'llarning taqiqlash kategoriyasini shakllantirishdagi o'rni	310
Qobilova N.S., Ollomurodov A.O. Kinodiskursida salbiy emotsiyalarni qurish: kognitiv-pragmatik nuqtai nazar	312
Qobulova D.R. Tabiat bilan bog'liq ayol ismlarining semantik xususiyatlari	316
Qodirova X. Ingliz nutqiy etiket shakllari: ularning pragmatik tamoyillari va ularning ijtimoiy kontekstdagi ahamiyati	319
Quvvatova Sh.Ch. Xolid Husayniyning jahon adabiyotida tutgan o'rni	322
Radjapova F.A., Sabirova M.R. The comparison of somatic lexicon's peculiar features in the system of english and uzbek languages	324
Radjabov D., Shuhratova V. Yapon tilida fe'llardagi inkor-buyruq shakllarining tahlili	327
Rahmonov H.A. Omon Matjon she'rlarida assotsiativ aloqa ko'rinishlari	330
Rahmonova S.N. Meronimlar tadqiqot obyekti sifatida	333
Rashidova D.K. Diniy diskurs tilining lingvistik o'ziga xosligi	335
Rashidov S. Milliy koloritni ifodalovchi reyaliyalarning o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishda lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari	338
Rasulova M.A. Dramatik diskursda pragmatikaning pressupozitsiya elementlari va ularning tahlili	341
Ravshanova R.X. Sotsiolingvistika va tilning jamiyatdagi o'rni	343
Raximova G. Bolalar ruhiyatini rivojlantirishda anvar obidjon she'riyatidan foydalanishning metodik xususiyatlari	346
Raximov M.M. O'zbek tilshunosligida "yo'l" konseptosferasi genezisi	349
Raximova N.O. XXI asrda janr o'zgarishi jarayonining kuchayishi	354
Raxmatullayeva Sh.A. Figurative language and emotional resonance	356
Rizoyeva M. Odam Ato haqidagi afsonalarda sakrallik talqini	359
Rustamov D. Jadid dramalarining til xususiyatlari	361
Rustamov D. Jadid dramalarida o'zlashmalar	364
Ruzikulova G.G. Linguocultural Comparison of Somatic Phraseological Units Based on the "Foot" Component in English and Uzbek	367
Ro'zimurodova Z.G`. Portret va peyzaj tasviri orqali "Shaytanat" asarining estetik o'rni	370
Sabirova N.E., Atadjanova R.X. "Oshiqnoma" turkum dostonlari leksikasining eski o'zbek tiliga munosabati	373
Sadinov O. Badiiy asar tarjimasidagi pragmatik muammolarning milliy mentalitet bilan bog'liq jihatlari	376

uchun doimo shirin-shakar taomlar pishiradi. Onaning qo'li bilan tayyorlangan har qanday taom lazzatli bo'ladi. Chunki onalar bolalari uchun tayyorlayotgan taomlariga cheksiz mehr-muhabbat qo'shib tayyorlashadi. Onaizor chuqur xayolga cho'mib, bolasi uchun har tong mehr bilan nonushta tayyorlashini, u tayyorlagan sutdek oppoq kulchalarni farzandi, jigargo'shasi juda sevib yeyishini eslab ko'zlariga yosh oladi. Onaizor farzandining bunday og'ir azoblarga qolganini ko'rib yurakbag'ri ezilib ketadi. Farzandi ovqat yemasa qanday kuch to'playdi, qanday tuzaladi. Farzandi ovqat yemas ekan, onaning tomog'idan qanday qilib ovqat o'tadi. Ona uchun shu damda olayotgan har bir nafasida cheksiz azoblanish, iztirob mavjud. Qani endi, o'sha baxtli kunlar ortga qaytsa, qani edi, farzandi oldingidek o'ynab-kulib yursa, yugurib kelib biyron tillari bilan oyijonisidan yoqtirgan kulchalarini pishirib berishini so'rasa, ona farzandi uchun mehr bilan turfa taomlar pishirsa, farzandining ko'zlaridagi quvonchni ko'rib cheksiz baxtni tanasida his qilsa, Allohim bu dardni bolasiga, jigarbandiga emas, unga bersa.

Shu o'rinda kitobxon o'quvchilarning diqqatini bola ruhiyatidagi ishonch tuyg'usiga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi. Qahramonning ruhiyatidagi o'zgarish bolalarni ancha xotirjam qiladi. Onasining ko'zyosh to'kayotganini ko'rgan bola, o'zining tuzalayotganini, tuzalishiga sof go'dak qalbi bilan chin dildan ishonayotganini, onasining boshqa hech qachon yig'lamasligini chin dildan xohlaydi. Dorilar ichvoldim, bo'ldim yana "zo'r polvon". Dorilarni ichib onasini xursand qilgisi kelgan murg'ak go'dak, oldingidek o'zini avvalgidek tetik his etadi. Oyisini yupatishga harakat qilgan bolajon aldamayotganini aytadi. Shoir bola holatini shu qadar tasvirlaganki, she'rni o'qigan har bir kitobxon ko'z oldida, bolaning qiyofasi beixtiyor gavdalanadi, uning dardini ich-ichidan his qiladi. Tuzalishga astoydil intilayotgan bola tuzalganidan so'ng onaisga shaharga borishini, ularni tashlab ketgan dadasi ham ular bilan yarashgani kelishiga ishonadi. Bola ko'ngli misoli oq qog'oz. U ota-onasi bag'rida, xursandchilikda yashashni xohlaydi. Hatto to'shakda dard bilan olishayotgan paytda ham, dadasini kelishiga ishonadi.[4.278]

Xullas, o'zbek bolalar adabiyotini metodik rivojlantirishda Anvar Obidjonning o'z o'rni va o'z uslubi bor. Ma'naviyat va ma'rifat masalalariga davlat miqyosida e'tibor kuchaygan bugungi kunda, Anvar Obidjonning ibratli hayoti va boy ijodidan, unda ko'tarilgan g'oyalardan saboq, ibrat olish ham yuksak ma'naviy ahamiyat kasb etadi. Anvar Obidjonning ijtimoiy xarakterdagi she'rlari bolalarni ona-Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat, adolatga intilish, insonlarga yaxshilik qilish ruhida tarbiyalashdek muhim vazifalarni metodik amalga oshishda katta ta'sir kuchiga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anvar Obidjon. Tanlangan she'rlar to'plami. –Toshkent: "Sharq", 2006. – 35-b.
2. Anvar Obidjon. She'rlar va hikoyalar. –Toshkent: "Sharq", 2006. – 57-b.
3. Husanboyeva Q., Hazratqulov M., Jamoliddinova Sh. Boshlang'ich sinflarda adabiyot o'qitish metodikasi. Darslik. –T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020. – 380 b.
4. Raximova G. Ona tili va adabiyot (Bolalar adabiyoti). O'quv qo'llanma. Samarqand, 2022. – 308 b.

UO'K 808.5

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA "YO'L" KONSEPTOSFERASI GENEZISI

M.M.Raximov, katta o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro

Annotatsiya. Maqolada "yo'l" konsepti, uning o'zbek tilshunosligidagi o'rni, kelib chiqishi haqida mulohazalar olib borilgan. "Yo'l" konseptosferasi turlicha muhokama qilingan, konsept va konseptosfrera haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: lingvomadaniyatshunoslik, konsept, konseptosfera, yo'l, etnopsixologiya, genezis

Аннотация. В статье приводятся рассуждения о понятии "путь", его роли в узбекском языкознании, его происхождении. Концептосфера "пути" обсуждается по-разному, рассматриваются концепт и концептосфера.

Ключевые слова: лингвокультурология, концепция, концептосфера, путь, этнопсихология, генезис

Abstract. The article discusses the concept of "path", its role in Uzbek linguistics, and its origin. The conceptual sphere of the "path" is discussed in different ways, the concept and the conceptosphere are considered.

Key words: *linguoculture, concept, conceptosphere, path, ethnopsychology, Genesis*

Kirish. Bugungi kunga kelib tilshunoslikni faqatgina struktura yoki aynan bir sistema sifatida o'rganish kifoya bo'lmay qoldi. Ayni paytda tilshunos olimlar uni madaniyat, psixologiya, ma'naviyat, etnopsixologiya, dinshunoslik kabi fanlar bilan integrallashgan holda o'rganishni ma'qul ko'rmoqdalar. Bunga sabab, toki biz tili o'rganilayotgan millatni madaniyati, ma'naviyati, psixologiyasi, uni kelib chiqishini, dinini o'rganmas ekanmiz uni tilini to'liqligicha tushunib yeta olmaymiz. Bu esa o'z navbatida til o'rganishning asosi bo'lgan o'sha millat adabiyotini asliyatga mos ravishda tarjima qila olmasligimizga va kitobxonga uni to'liqligicha yetkaza olmasligimizga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili. Tilshunoslikda kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya terminlari dast avval amerikalik olimlar J.Burner, J.Lakoff, E.Said, J.Miller, R.Langaker, R.Jakendoff va boshqa olimlarning ishlarida namoyon bo'la boshladi. Madaniyat, til va etnosning o'zaro aloqadorligi masalasi bugungi kunda yangilik emas. XIX asrning boshlarida bu masala bo'yicha nemis olimlari aka-uka Grimlar o'z ilmiy mushohadalarini olib borishgan. "Til-madaniyat" tushunchalarining uzviy aloqadorligi dastlab V.fon Gumbaltning ishlarida ko'rinadi [1]. Uning fikricha, til "xalqning ruhiyati", xalqning "asl ko'rinishi"dir.

Kontseptosfera kognitiv tilshunoslikdagi muhim tushunchalardan biridir. Bu tushunchalardan tashkil topgan, tashqi dunyo haqidagi turli xil bilimlarni umumlashtiradigan, aqliy rasmlar, diagrammalar, ramzlar, tushunchalar, ramkalar, stsenariylar, gestaltlar (tashqi dunyoning murakkab murakkab tasvirlari), propozitsiyalar, kognitiv, mavhum ma'nolar shaklida mavjud bo'lgan bilimlar to'plamidir. Konsept atamasi birinchi marta akademik D. S. Lixachev tomonidan fanga kiritilgan. Akademik D. S. Lixachevning ta'rifiga ko'ra, kontseptosfera - bu millat tushunchalarining to'plami, u ona tilida so'zlashuvchilarning barcha potentsiallari va tushunchalari majmualari orqali hosil bo'ladi [4, 5-bet]. Konseptlar ham, kontseptosfera ham kuzatilmaydigan aqliy mavjudotlardir.

Tadqiqot usullari. Konsept atamasi ko'pincha lingvistik tadqiqotlarda uchraydi. Ushbu tushuncha kognitiv tilshunoslikdagi muhim tushunchalardan biridir. U nafaqat falsafa va madaniyatshunoslikda, balki tilshunoslik, lingvodidaktika, tarjima nazariyasi, etnopsixolingvistikada ham keng qo'llaniladi.

Konsept atamasi birinchi marta 1928 yilda S. A. Askoldovning "konsept va so'z" maqolasida berilgan. Muallif bu tushunchani "fikrlash jarayonida bizga bir xil turdagi noaniq ob'ektlar to'plamini almashtiradigan aqliy ta'lim" deb tushungan [5, 260-267-betlar]. Shu ma'noda, konsept fikrlash jarayonida tushunarsiz bo'lgan ko'plab qo'shni ob'ektlarni o'zgartiradigan fikr tizimi sifatida tushuniladi.

Kognitiv tilshunoslikda konsept atamasi olimlar tomonidan qo'llaniladi (S. A. Askoldov, A. Vejbitskaya, R. Langaker, yu.S. Stepanov, R. M. Frumkina, 3.D. Popov, A. I. Sternin, V. A. Maslova, K. 3. Zulpukarov, M. J. Tagaev tomonidan, 3.K. Derbisheva va boshqalar) uzoq vaqt. "Tilshunoslik fanining kengayishi" orqali konsept 80-yillarda to'liq atamaga aylandi [6, p.2].

R. M. Frumkin ta'kidlaganidek, sovet tilshunosligida konsept atamasi (70-yillarning o'rtalarida) Shenk, Cheyf, Rassel, Karnap, Putnemder asarlarini ingliz tilidan tarjima qilish orqali shakllanadi [6, 10-16-betlar]. Bu erda inglizcha so'zning tarjimasi taklif qilingan soncept tushuncha sifatida.

Natijalar va ularning muhokamasi. Ilmiy adabiyotlarda konsept atamasining turli xil talqinlari mavjud, ular olimlar orasida turli xil fikrlarni keltirib chiqaradi.

Konsept atamasining semantik tomondan noaniqligi, uning aniq chegarasining noaniqligi, ilmiy adabiyotlarda keng tarqalgan universal ta'rifning etishmasligi ba'zi tushuntirishlar va qo'shimchalarni talab qiladi. Buni taniqli rus tilshunoslarining asarlari tasdiqlaydi: S. A. Askoldov (Alekseeva), D. S. Lixachev, R. M. Frumkina, yu.S. Stepanov, E. S. Kubryakova, N. N. Boldireva, V. N. Telia, V. I. Karasika, V. V. Kolesov, 3. D. Popova, I. A. Sternina, A. P. Babushkina, E. A. Selivanova, G. G. Slishkina, S. G. Vorkacheva, L. O. Chernayko va boshqalar.

Konsept har bir ilmiy atamani o'ziga xos tarzda tushuntiradi. Shunday qilib, A. Vejbitskaya birinchilardan bo'lib quyidagi ta'rifni taklif qildi: "bu dunyodagi "ideal" ob'ekt bo'lib, uning nomi bor va insonning "haqiqat" dunyosi haqidagi ma'lum madaniy-shartli g'oyalarini aks ettiradi" [7, 416-

bet]. Bu erda konseptning o'ziga xos nomi bor, u insonning haqiqiy dunyo haqidagi madaniyati, haqiqiy pozitsiyasini aks ettiruvchi ideal ob'ekt sifatida tavsiflanadi.

Z. D. Popova, I. A. Sternin kontseptni anglashni aks ettiruvchi tuzilma deb bilishadi. "Lingvistik tadqiqotlarda kontsept tushunchasi" asarida ular anglashning tuzilgan kvantini, global fikrlash birligini o'z ichiga olgan holda ko'rsatadilar. Tushunchalar inson ongida paydo bo'ladigan ideal mohiyatdir [8, 34-bet].

V. N. Telia fikriga ko'ra, kontsept "ushbu bilimlarning butun hajmida ob'ekt haqida biz bilgan hamma narsa"dir. Kontsept-bu ob'ekt haqidagi to'liq bilimlar to'plami. U abstraktsiyaning eng yuqori semantik toifasini o'z ichiga oladi, umumiy semantikaning o'ziga xos ma'nosini konkretlashtirishni o'z ichiga oladi [9, p.173].

D. S. Lixachev o'z fikrini "Rus tilining kontseptosferasi" maqolasida bayon etadi. U shunday deb yozadi: "kontsept lug'atdagi so'zning ma'nosidan iborat emas, bu ma'no insonning shaxsiy va etnik tajribalarini birlashtirish natijasidir..."[4, 281-sahifa].

A. P. Babushkin quyidagi ta'rifni beradi: kontsept-bu til vakillari orasida milliy xotirada og'zaki ravishda saqlanadigan kollektiv ong yoki ideal dunyoning diskret, mazmunli birligi [10, 13-bet].

V. V. Kolesov "madaniyat kontsept: tasvir - tushuncha – ramz" maqolasida kontsept so'zning semantik ta'minotining boshlang'ich nuqtasi va shu bilan birga rivojlanishning so'nggi xususiyati ekanligini yozadi [11, 16-25 - betlar].

N. D. Arutyunova konseptni nuqtai nazar tushunchasi sifatida tushunadi, ya'ni, hayotning eng muhim mohiyatini xabardor qilish vositasi sifatida [12, 10-11-betlar].

Yuqoridagi g'oyalarga asoslanib, ishonch bilan aytishimiz mumkinki, kontsept axborotni saqlash, ishlab chiqish va to'plashning madaniy hodisasidir, ehtimol uning universal ta'rifi eng qisqa mantiqiy xususiyatdir: kontsept – bu dunyoning lingvistik rasmiga asoslangan ma'lumotlarni saqlash va to'plashning konstruktiv tushunchasi.

Uning semantik hajmida semantik toifalar mavjud: tushuncha, ramka, Gestalt, taklif, prototip, stseneriy, tasvir, belgi va boshqalar (N. N. Boldirev, Z. D. Popova, I. A. Sternin, L. I. Bustard).

Turli ilmiy qarashlardagi ma'lumotlar konseptni aniqlashning asosiy tarkibiy qismlarini alohida ko'rsatishga imkon beradi. Keling, asosiylarini sanab o'tamiz: 1) kontsept - fikr birligi. 2) kontsept-bilim birligi, kvant ta'limi. 3) kontsept-qiymatlar to'plami. 4) kontsept - mustahkamlangan madaniyatning ma'naviy elementi. 5) kontsept tushunchasi. 6) kontsept-barcha bilimlar to'plami. 7) kontsept - dunyoni toifalarga ajratish usuli. 8) kontsept-ko'p o'lchovli ta'lim. 9) kontsept-operativ xotira birligi. 10) kontsept atamasi. 11) kontsept-og'zaki (so'z orqali uzatuvchi) tushuncha. 12) kontsept xarakteristikasi. 13) fikr tushunchasi tizimi. 14) kontsept-dunyo rasmining operatsion birligi [14, 10-20-betlar].

Hozirgi vaqtda til nazariyasida olimlar tomonidan o'rganilgan bir nechta tushunchalar mavjud. Shunday qilib, N. M. Kataeva "rus konsepti irodasi: lug'atdan matnga" mavzusidagi dissertatsiyasida murakkab psixolingvistika va tilshunoslik metodlari asosida rus mentalitetining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiruvchi Iroda konseptining mazmunini ochib beradi [14, 21-bet].

U. D. Qambaraliyevaning "dunyoning konseptual rasmidagi vaqtinchalik toifalarga ajratish" monografiyasi dunyoning konseptual tasviri bilan bog'liq nazariy muammoni chuqur o'rganishga bag'ishlangan. Bu erda muallif rus va qirg'iz tillarida vaqtinchalik va vaqtinchalik munosabatlarni toifalarga bo'lish usullari va vositalarini har tomonlama tahlil qildi. U. D. Qambaraliyevaning "va" Ubakit "konseptosferalari doirasida dunyoning konseptual rasmini tasvirlashga qaratilgan asari qimmatli va keng ko'lamli hisoblanadi [16, 490-bet].

O. V. Kabosmanovning "rus, Amerika va Eron lingvokulturalarida kamtarlik konsepti" nomli dissertatsiyasida ushbu xalqlar madaniyatida kamtarlik konseptining kompleks tavsifini beradi. Muallifning fikricha, kamtarlik tushunchasi ijtimoiy-axloqiy tartibga soluvchi hisoblanadi.

Z. K. Derbishevaning "Qirg'iziston lingvokulturasining asosiy konseptlari" monografiyasi fundamental ish hisoblanadi. Monografiya zamonaviy lingvistikaning kognitiv yo'nalishida bajarilgan. Bu erda ijtimoiy-madaniy, antropomorfik, milliy-madaniy, ma'naviy-axloqiy tushunchalar tasvirlangan [17, 176-bet].

“Yo‘l” kontseptosferasining genezisi xalk ogzaki ijodidan boshlanadi. Asosan, ertaklarda uziga xos ma’no va mazmun kashf etadi, jumladan, asar qaxramonlarining sarguzasht safarlarida yetakchi o‘rin egallaydi. O‘zbek va rus ertaklarining aksariyatida uch og‘aynilar yoxud uch og‘ayni botirlar oldidan uch yo‘l chiqishi sarguzasht uchun yo‘l ochadi va uning qiziqarli bo‘lishiga yo‘l ochib beradi. Uch yo‘l, o‘z navbatida ezgulik va yovuzlikning ajralishi, aka-uka og‘aynilarni bir-biridan uzoqlashishiga, keyingi hayot yo‘lini belgilovchi ma’nolar kashf etadi. Shuningdek, ertaklar syujet rivojini ta’minlaydigan vosita vazifasini xam bajaradi. Shu bois ko‘pgina folklor ertaklaridagi an’anaviy uch yo‘l semasi tadqiqotchilar tomonidan keng tahlil qilingan. Fikrimizcha, an’anaviy uch yo‘l motivi qadimgi turkiylarning mifologik tasavvurlariga borib taqaladi. Moddiy olamning paydo bulishini izohlovchi mifologik afsonalarning bizgacha yetib kelgan namunalarida olamning tuzilishi haqidagi ibtidoiy qarashlar to‘la saqlangan. Aytilishicha, qachonlardir butun borliq cheksiz suvlik bulib, uning ichida o‘g‘li Ulganni yelkasiga mindirib olgan Oq kema suzib yurgan. Ulgan enasining ko‘magida quruqlikni yaratgan. Suv ustidagi Yerni mustahkamlash uchun Ulganga uchta baliq kifoya qilgan: ikkitasi chekkaga, biri o‘rtaga quyilgan. O‘rtadagi baliq boshi shimolga qaratilgan bo‘lib, yerning asosiy tayanchi hisoblangan. Qadimgi turkiy afsonalarda ham dastlab ikki olam – o‘z va o‘zga yurt haqida gap borgan. Bu mifologik tasavvur o‘zbek xalq ertaklaridagi epik makon tasvirida ham o‘z ifodasini topgan. An’anaviy uch yo‘l kontseptosferasi motivining tahlili bir mifologik makon talqinida uch olam (Ko‘k, Zamin, Yer osti) hech qachon bir-biriga qiyoslanmasligini ko‘rsatadi. Chunki ertaklarda hamisha ikki yo‘l - ikki olam qiyoslanadi. “Bulbuligo‘yo” ertagida Zumrad daraxt bargini o‘g‘irlab ketgan qushni izlab safarga otlangan shahzodalarning oldidan uch yo‘l chiqadi. Katta aka “borsa kelar”ga, o‘rtanchasi “borsa xatar”ga, kenja esa “borsa kelmas”ga jo‘naydi. Shunda o‘rtanchasi: “Bu “borsa xatar” chatoq, akam bilan birgalashib, gaplashib ketsam bo‘lmaydimi”, — deb akasining ketidan ketib, unga yetib olibdi” Ba‘zan ikki yo‘l qiyoslanayotganligi to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatilmaydi.

Xususan, “Oqqush”, “Abulqosim”, “Misr podshosi” ertaklarida uch aka-uka uch yo‘lga bo‘linib ketishadi. O‘rtanchaning yo‘ldan qaytib, katta aka izidan junashi epizodi yo‘q. Bu kontseptosfera ibtidoiy qarashlar sintezi sifatida mifdan ertakka o‘tib, epik syujet tarkibida turg‘unlashib qolgan. Aslida, qaxramonlar oldidan uch yo‘l kontseptosferasi chiqsa-da, bu epik motivning badiiy talqinlarida uning arxaiik qatlami - qadimiy o‘zagi saqlangan: katta akalar borgan epik yurt kenja ketgan “borsa kelmas”ga qarama-qarshi qo‘yiladi. Xalqqa xos jamiki jihat, jumladan, madaniyat ham til orqali verballashadi, aynan til madaniyatning tayanch tushunchalarini harakatga keltiradi, tom ma’noda, madaniyat to‘lalgicha tilda voqelanadi va nutqda yuzaga chiqadi. Madaniyatga xos istalgan qirraning voqelanishi “tafakkur-til-nutq” trixotomiyasi orqali amalga oshadi.

Ayonki, tadqiqotchilar lingvomadaniyat tushunchasiga turlicha yondashadilar. Masalan, Emil Benvenist til va madaniyat tushunchasiga quyidagicha ta’rif beradi: “Insoniyat lingvomadaniyatni uch birlikda tasavvur qiladi. Bu – madaniyat, til va inson shaxsi. Tadqiqotchi lingvomadaniyatni “linza” deb qabul qiladi va u orqali moddiy va madaniy qadriyatlarni o‘rganadi. Mana shu “linza” asosini lingvomadaniy tushuncha egallaydi”. [19, 87-90 betlar] O‘zbek millatiga xos takrorlanmas kontseptosfera birliklarning biri “yo‘l” ko‘p yillar davomida umummilliy qadriyatlarning ko‘p ma’noli birligiga aylanib, mukammallashib borayotganligini kuzatish mumkin. Mazkur kontseptosfera ko‘p qirrali, u shu millat vakilining qalbida faxr, viqor, mehr-muhabbat tuyg‘ularini uyg‘otuvchi yo‘l-butun hayoti davomida hamrohdir. Hozirgi kunda tilshunoslikda “kontseptosfera” atamasiga ikki xil yondashuv mavjud: unga kognitiv tilshunoslik va lisoniy madaniyatshunoslik kategoriyalari tomonidan yondashilmoqda . [4, 28-30 betlar]

Kognitiv tilshunoslikda kontseptosfera insonning bilimi va tajribasini, mental leksikasini, butun olam manzarasini, miyaning kontseptual va til tizimini, insonning ruhiyatini ifodalovchi vosita sifatida o‘rganiladi. Kontseptosfera madaniy universalialarni ifodalaydi va u tafakkurda mavjud bo‘ladi, o‘zida kognitiv-ratsional hamda emotsional-psixik mazmunni biriktiradi . [4, 28-37 betlar]

“Yo‘l” kontseptosferasi qamrovidagi har bir ifoda unga xos leksik-semantik maydonning muayyan tashkil etuvchisi hisoblanadi. Ularning tashqi va ichki madaniyat bilan bog‘liq bo‘lgan ma’nolarini atroflicha tahlil qilish uchun asosiy manba – badiiy adabiyotlardir. Jumladan, Said Axmad Togay Murodning “Ot kishnagan oqshom” nomli kissalar tuplami kitobiga baxo berib

shunday deydi “ Ushbu satrlarni ukib bulgach,xaelga tolasiz. Xozirgina mungli bir kushik tinglagandek bulasiz. Bu kushik olis yo‘l bosib, Uzbekistonimizning kaynok, janub Surxonidan uchib keldi”(Asarning 5 betidan). Bu satrlarda keltirilgan: olis yo‘l, kushik olis yo‘l bosgan birliklar Vatan kaygularidan darak beradi. Shuningdek, faxrlanib vatanni kuylaydi-Uzbekistonimizning kaynok, janub Surxonidan uchib keldi. Ya’ni,yo‘l yurib emas, balkim kanot chikarib uchib keldi. Ogir hayot miammolari mungli kushik bulib olis yo‘l bosib Surxondan uchib keldi. Bu jumalardagi “yo‘l”kontsentosferasi nafakat oddiy masofa, xarakat kilish joyi,balki hayot sukmoklarini ifodalaydi.

E’tibor qilsangiz, mana shu keltirilgan birgina mujaz misra “yo‘l” leksik birligining qator ichki ma’nolarini yuzaga chiqara olgan. Shu bilan birga “yo‘l” kontseptosferasi milliy qadriyatlarimizda buyuk sevgi-muxabbat tuygularini kushik singari kuylaydi. Masalan, “Sharkning buyuk dostonlari-Layli va majnun,Farxod va shirinlar, Toxir va zuxralar necha yuz yillardan beri yashab keladi.Ularda bir-biriga yetisholmay,muxabbat yo‘lida jon bergan baxtsiz oshik-mashuklar tasvirlanadi”(usha asar. 5 bet.) Uzbekiston xalk yezuvchisi Said Axmad yukorida keltirgan shark dostonlari kaxramonlarini sharaflab, ularni Togay Murodning “Oydinda yurgan odamlar” kissasiga kieslaydi. Bu kissani Said Axmad shunday deb atagisi keladi: “Oydinda yurgan odamlar” kissasini “Muxabbat kushigi” deb atagim keldi. Togay Murod kissa xar ikki kahramon chol-kampirning o‘zaro mehr-muhabbatini qo‘shiqdek kuylaydi. Umuman aytganda, ular hayot yo‘li-muxabbat yo‘lida jon bergan,baxtsiz oshik-mashuklardir.Bu ikkala kaxramonlarning uzaro munosabatida milliy bebaxo sharkona madaniyat bark uradi. Karang”...Kissada Koplon bilan Oymomo farzand ilinjida tunni tongga, kunni oyga, yilni yilga ulab yashaydi. Koplon xotinini Momosi desa, Oymomo erini bobosi,deb chakiradi.Ular yuk bolaning bobosi, yuk bolaning momosi bulib, yillarni yillarga ulaydi.”(Usha asar.5b.).(xech kachon eru-xotinlar bir birining ismini atab murojaat kilishmagan).

Xulosa. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, o‘zbek tili va madaniyatida “yo‘l” kontseptosferasi muhim ahamiyatga ega bo‘lib, lingvomadaniy birliklar tizimida alohida o‘rin egallaydi. U barcha lingvistik kontseptosferalar singari madaniyatning kichik bir modeli sifatida namoyon bo‘lgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Gumbalt V.Fon. Yazik I filosofiya kulturi. – M, 1985, C.451.
2. Прохоров Ю.Е. В поисках концепта. – М., 2008. – 397 с.
3. Дрофа Л.И. Ключевые понятия когнитивной лингвистики. – Ош, 2009.-89с.
4. Лихачев Д.С. Концептосфера русского языка// Изв. РАН – СЛЯ. – 1993, №1. - С. 3-9.
5. Аскольдов С.А. Концепт и слово // Русская словесность. От теории словесности к структуре текста. Антология. – М., 1997. – 260-267 сс.
6. Фрумкина Р.М. Концептуальный анализ с точки зрения лингвиста и психолога // Научно-техническая информация. – 1992. Сер. 2. - №3. 3-9сс.
7. Вежицкая А. Язык. Культура. Познание. – М.,1996. – 416с.
8. Попова З.Д., Стернин И.А. Понятие «концепт» в лингвистических исследованиях. – Воронеж,1999.– 211б.
9. Телия В.Н. Коннотативный аспект семантики номинативных единиц. - М. Наука, 1986.-173с.
10. Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. – Воронеж,1996.–281с.
11. Колесов В. В. Концепт культуры: образ – понятие – символ // Вестник СПбГУ. Сер.2. Вып.3(№16),1992.С.16–25.
12. Арутюнова Н.Д. Типы языковых значений: Оценка, событие, факт. М., 1988. - 339 с.
13. Красных В.В. «Свой» среди «чужих»: миф или реальность?. - М.: ИТДК Гнозис, 2003.-375с.
14. Трофимова А.В. Концепт "Огонь" в современном русском языке: автореф. дис. канд. филолог. наук: 10.02.01 / А. В. Трофимова. - Электрон. текстовые дан. - М., 2005.-26с.
15. Катаева Н. М.. Русский концепт ВОЛЯ: От словаря - к тексту: диссертация кандидата филологических наук: 10.02.01 Екатеринбург, 2004- 180 с.
16. Камбаралиева У.Д. Темпоральная категоризация в концептуальной картине мира. – Бишкек,2013.– 490с.
17. Дербишова З.К. Ключевые концепты кыргызской лингвокультуры –Б.,2012 – 176 с.
18. Ипанова О.А. Концепт «Жизнь» в русской языковой картине мира: лингво-культурологический и лексикологический аспекты: автореф. дис....канд.филол.наук/О.А.Ипанова.-СПб.,2005.-25с.
19. Емельянова Е.В. Концепт как базовая категория лингвокультурологии. Евразийский Союз Ученых (ЕСУ) # VII, 2014. –С.87-90.